INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TA'LIM JARAYONIDA FANLARARO KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Egamberdiyev Muhriddin Muhammad o'g'li
Buxoro Osiyo Xalqaro Universiteti
I-bosqich magistratura talabasi

Qabul qilindi: 26.12.2025
Ko'rib chiqildi: 27.12.2025
Tasdiqlandi: 29.12.2025

Zamonaviy sharoitda fanlarni o'qitishda ularning integratsiyasiga yetarli darajada e'tibor berilmayapti. Hatto o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi o'quv rejalarida ham fizika va elektrotexnika, kimyo va materialshunoslik kabi fanlarning o'zaro tizimli bog'liqligi to'liq ta'minlanmagan holda o'qitilmoqda. Ushbu muammoni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar mavjud bo'lsa-da, o'quv rejalarida fanlarni o'qitish vaqtini muvofiqlashtirish yoki fanlar mazmunini qisman uyg'unlashtirish bilan cheklanib qolmoqda.

Mazkur muammoning tub yechimini ta'minlash hamda o'quvchilarga yuqori sifatli bilim berishga qodir bo'lgan ta'limni tashkil etish uchun fanlar integratsiyasining zarur shart-sharoitlari, shakllari, mazmuni va vositalarini ishlab chiqish talabi yuzaga kelmoqda. Didaktikada fanlarni integratsiyalashning bir qancha yondashuvlari taklif etilgan bo'lsa-da, hozirga qadar ushbu jarayonning umumiy qabul qilingan mazmuni, shakllari va vositalari yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Pedagog olimlarning aksariyati ta'lim jarayonidagi integratsiyani dastlab fundamental fanlar doirasida amalga oshirilgan jarayon sifatida talqin qiladilar va keyinchalik uning pedagogika sohasida keng qo'llanila boshlaganini ta'kidlaydilar. Ta'kidlash joizki, o'quv fanlari ilmiy fanlardan farq qiladi. Bu farq faqat mazmunda emas, balki bilimlarning taqdim etilish shakli, hajmi va chuqurligida ham namoyon bo'ladi.

O‘quv fanlarini o‘rganishdan asosiy maqsad talabalarni fanning obyektiv yangiliklari bilan tanishtirish emas, balki ular asosida o‘quvchida subyektiv yangi bilimlarni shakllantirishdan iboratdir. Bugungi kunga qadar pedagogik adabiyotlarda integratsiya muammosi turli nuqtai nazarlardan o‘rganilgan bo‘lib, integratsiyaning umumiy nazariy-pedagogik jihatlari, ilmiy bilimlarning integratsiyasi va differensiallashuvi, shuningdek, amaliy sintez masalalari keng yoritilgan. Ayniqsa, kasbiy ta’limda integratsiya jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik integratsiyaning nazariy jihatlari V.S. Bezrukova, G.M. Dobrova, V.M. Maksimova, O.M. Sichivitsa, I.P. Yakovlev va boshqa olimlarning tadqiqotlarida chuqur tahlil qilingan. Xususan, I.P. Yakovlev integratsiyani jamiyat, fan va ta’lim taraqqiyotini belgilovchi yetakchi tendensiya sifatida baholab, ta’lim jarayonida integratsiya jarayonlarining muvaffaqiyatli kechishi uchun zarur shart-sharoitlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega ekanligini hamda ularning nazariy jihatdan zarurligini ta’kidlaydi [18].

G.M. Dobrova esa o‘z navbatida, turli fanlardan kelib chiqadigan bilimlarni yagona tizimda mujassamlashtirish orqali ularni sintetik idrok etish imkoniyatini yaratish zarurligini qayd etadi. U bunday yondashuv o‘quv jarayonida samarali choralarni belgilash, ta’limiy vazifalarni to‘g‘ri qo‘yish imkonini berishini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, olim ta’lim jarayonida amaliy muammolar bilan bir qatorda ilmiy-nazariy masalalarni ham hal etish, shuningdek, o‘qitish jarayonida kibernetik qurilmalar va texnik vositalardan foydalanish, o‘quvchilarning bilimlarni mustaqil egallashiga ko‘maklashuvchi hamda ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi o‘qitish metodlarini barcha bosqichlarda faol qo‘llash zarurligini alohida e’tirof etadi.

Integratsiya mohiyatini anglashda fanlarning o‘zaro ta’siri nuqtai nazaridan ta’lim mazmunini yaxlit holda yoritishga bag‘ishlangan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega. Bu borada N.G. Chernyshevskiy shunday deb yozgan:

“… bir fan doirasidagi bilimlar boshqalaridan ajralgan holda bo‘lsa, u talabalarining aqliy va jismoniy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirishga erishib bo‘lmaydi”.

Ilmiy bilimlarni integratsiyalash masalasi B.M. Kedrov, M.G. Chepikov, G.M. Dobrova va boshqa olimlarning asarlarida eng to‘liq yoritilgan. Ushbu olimlar ilmiy bilimlar integratsiyasini ularning differensiallashuvi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tarkibiy jarayon sifatida talqin qiladilar. Xususan, B.M. Kedrov ta’kidlaganidek, ilmiy bilimlar rivojida bir-biriga qarama-qarshi, ammo o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikki tendensiya mavjud: birinchisi – fanlarning parchalanishi va tabaqalanishi, ya’ni ularni farqlash va ajratish jarayoni; ikkinchisi esa – integratsiya jarayonidir [8].

Kedrov integratsiya jarayonini ilmiy bilimlar rivojining ichki qonuniyati sifatida izohlaydi. Uning fikricha, turli fanlar o‘zaro ta’sirga kirishib, dastlab alohida o‘rganilgan bilimlar keyinchalik yagona yaxlit obyekt sifatida qaraladi va u turli jihatlari orqali bir vaqtning o‘zida tadqiq etiladi. M.G. Chepikov esa integratsiya jarayonini “turli fanlarning qo‘shilishi, ilmiy bilimlarning sintezi natijasida inson tafakkuri moddiy olamning eng chuqur mohiyatini anglash uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi”, deb ta’riflaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.:-Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2008.

2. Azizxo‘jayeva N.«Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat». TDPU-2003.

3. Г.И.ХАСАНОВА “Таълим жараёнида дастурлаштирилган ўқитиш технологиясидан фойдаланишнинг афзалликлари” Жиззах: 2020. 420 бет. 223 -225б

4. Хасанова, Г. (2021). Олий таълим муассасалари педагогларининг Креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 778-782

5. М.Усмонова . Ўкувчи шахсига йуналтирилган педагогик технологиялар Таълим технологиялари. 2016 йил. 4-сон.

6. М.Усмонова .Педагогик лойихаси - жараён машғулотлар самарадорлигини воситаси сифатида таъминлаш Бошлаетич таълим ва жисмоний маданият йуналишида сифат ва самарадорликни ошириш: муаммо ва ечимлар Халкаро илмий конферентсия. Тошкент. 25 май, 2017 йил